



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd February, 2025

SHAHAR EKOLOGIYASI VA YASHIL HUDUDLARNING BOLALAR EKOLOGIK TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Maksudova Aziza Ikramdjanovna

Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Avtomatlashtirish
va raqamli boshqaruv kafedrasi assistenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shahar ekologiyasi va yashil hududlarning bolalar ekologik tarbiyasidagi ahamiyati muhokama qilinadi. Maqolada shaharlarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi va modernizatsiyasi natijasida yuzaga keladigan muammolar, xususan, yashil hududlarning kamayishi, havo ifloslanishi, shovqin va stressning kuchayishi muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada bolalarni tabiat bilan yaqin aloqada bo'lishga, uni qadrlashga va uni himoya qilishga undashning ahamiyati, shuningdek, shaharlarni yashil va bolalar uchun qulayroq qilish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Shahar ekologiyasi, yashil hududlar, bolalar ekologik tarbiyasi, barqaror rivojlanish, tabiatni himoya qilish, shahar rejalashtirish, ekologik turizm, yashil texnologiyalar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается значение городской экологии и зеленых зон для экологического воспитания детей. В статье обсуждаются проблемы, возникающие в результате быстрого развития и модернизации городов, в частности, сокращение зеленых зон, загрязнение воздуха, шум и рост стресса. Также в статье подчеркивается важность вовлечения детей в тесную связь с природой, привития им любви к ней и ответственности за ее защиту, а также даются рекомендации по созданию более зеленых и комфортных для детей городов.



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd February, 2025

Ключевые слова: Городская экология, зеленые зоны, экологическое воспитание детей, устойчивое развитие, охрана природы, городское планирование, экологический туризм, зеленые технологии.

ANNOTATION

This article discusses the importance of urban ecology and green spaces for children's environmental education. The article examines the problems arising from the rapid development and modernization of cities, in particular, the reduction of green spaces, air pollution, noise and increased stress. The article also highlights the importance of engaging children in close contact with nature, instilling in them a love for it and responsibility for its protection, as well as provides recommendations for creating greener and more child-friendly cities.

Keywords: Urban ecology, green spaces, children's environmental education, sustainable development, nature conservation, urban planning, ecotourism, green technologies.

KIRISH

Hozirgi zamon shaharlari tez sur'atlar bilan rivojlanib, modernizatsiya qilinmoqda. Bu jarayon shaharlarda yashil hududlarning kamayishi, havo ifloslanishi, shovqin va stressning kuchayishi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Afsuski, bu holat nafaqat kattalar, balki bolalarning sog'lig'iga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shahar ekologiyasi va yashil hududlarning bolalar tarbiyasidagi ahamiyati va bolalarning ekologik tarbiyasi masalasi ayniqsa dolzarbdir. Global ekologik muammolar, shu jumladan iqlim o'zgarishi, ifloslanish, tabiiy resurslarning kamayishi kabi massalalar insoniyatning hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shaharlar qurg'oqchilik va urbanizatsiya jarayonlari natijasida ulkan ekologik bosimga duch kelmoqda. Bu sharoitda yashil hududlar, ya'ni bog'lar, xiyobonlar va boshqa yashil maydonlar nafaqat shahar estetikasi uchun, balki aholi salomatligini saqlash va ekologik muvozanatni ta'minlash uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bolalarning ekologik tarbiyasi ushbu jarayonda o'ziga xos rol o'ynaydi. Yosh avlodni tabiatga bo'lgan hurmat va sevgi ruhida tarbiyalash, ularni atrof-muhit



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd February, 2025

muhofazasi masalalariga jalg etish zarur. Buning natijasida bolalar nafaqat shaxsiy mas'uliyat hissini rivojlantirishadi, balki kelajakda barqaror rivojlanish yo'lidagi faol ishtirokchilarga aylanishadi. Ekologik tarbiya orqali bolalarni atrof-muhitga nisbatan ongli yondashuvga o'rgatish va ularning kelajakdagi faoliyatlariga ta'sir ko'rsatish mumkinligi tahlil qilinadi. Bu jarayonni to'g'ri tashkil etish esa nafaqat shahar hayotini yaxshilashga, balki butun insoniyatning kelajagini muhofaza qilishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bolalar ekologik tarbiya olish orqali tabiatni qadrlash, uni himoya qilish va barqaror rivojlanish tamoyillarini tushunishga o'rganadilar. Ekologik tarbiya bolalarni atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga yordam beradi va ularni kelajakda atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan faoliyatda ishtirok etishga undaydi. Shahar ekologiyasi - bu shaharlarning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarini o'rganadigan fan sohasi. Shahar ekologiyasi shaharlarning barqaror rivojlanishi, tabiiy resurslarni saqlash, ifloslanishni kamaytirish va aholining sog'lig'ini yaxshilashga qaratilgan. Yashil hududlar shahar ekologiyasida muhim rol o'ynaydi. Ular havo sifatini yaxshilaydi, shovqinni kamaytiradi, issiqlikni so'ndiradi, biologik xilma-xillikni saqlaydi va aholining ruhiy salomatligini yaxshilaydi.

Shahar ekologiyasi va bolalar tarbiyasi o'rtasida uzbek bog'liqlik mavjud. Shaharlarning yashil hududlarga ega bo'lishi bolalarning sog'lig'i, rivojlanishi va ekologik tarbiyasi uchun muhimdir. Bolalar yashil hududlar bilan yaqin aloqada bo'lib, tabiatni qadrlash, uni himoya qilish va uni saqlashga bo'lgan mas'uliyatni o'rganishlari mumkin. Ushbu maqolada shahar ekologiyasi va yashil hududlarning bolalar tarbiyasidagi ahamiyati haqida adabiyotlar tahlili, kuzatuvalar natijalariga asoslangan muhokama va amaliy tajribalarga asoslangan tavsiyalar beriladi. Shahar ekologiyasi va yashil hududlarning ahamiyati bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan. O'zbekistonda shahar ekologiyasining rivojlanishi va yashil hududlarning o'rni haqida bir qator mualliflar tomonidan ilmiy ishlar yozilgan. Ushbu ishlar shahar atrofidagi yashil hududlarning inson salomatligi, ijtimoiy hayot va iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini o'rganadi. Yashil maydonlar nafaqat atrof-



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd February, 2025

muhitni muhofaza qilishda, balki bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Bolalar tabiat bilan bog'liq faoliyatlarda ishtirok etish orqali ekologik ongini shakllantirishlari mumkin. Shu bilan birga, ekologik tarbiya dasturlari orqali bolalarga tabiiy resurslarni saqlash va ularni muhofaza qilishning ahamiyatini tushuntirish zarurligi ta'kidlangan.

NATIJALAR

Yashil hududlar bolalar uchun ko'plab ijobiy ta'sirlarga ega. Toza havo, quyosh nuri va o'simliklar bolalarning immunitetini mustahkamlaydi, stressni kamaytiradi va ularning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa bolalarning stress darajasini pasaytirishga, diqqatni jamlash qobiliyatini oshirishga va ruhiy salomatligini yaxshilashga yordam beradi. Natijada jismoniy faollik uchun ajoyib imkoniyat yaratadi. Ular parklarda yugurish, velosiped haydash, o'yin o'ynash va boshqa jismoniy faoliyatlarda qatnashishlari mumkin. Tabiat bilan aloqa qilganda o'simliklar, hayvonlar, qushlar bilan tanishadilar, tabiatning go'zalligini va ahamiyatini anglab yetishadi. Ular tabiatni himoya qilish, chiqindilarni ajratish, suvni tejash va boshqa ekologik mas'uliyatlarni o'rganishlari mumkin. Tabiatni himoya qilishga qiziqa boshlaydilar va o'zlarini atrof-muhitni saqlashga mas'ul his qiladilar. Shaharlarda yashil hududlarning kamayishi bolalarning sog'lig'i va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bolalar toza havo va tabiat bilan yaqin aloqada bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lib, ularning jismoniy va ruhiy sog'lig'i, shuningdek, ekologik tarbiyasi buziladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, shahar ekologiyasining ahamiyati va yashil hududlarning bolalarning ekologik tarbiyasiga ta'siri mavjud. Yashil hududlar, masalan, parklar, bog'lar va boshqa tabiiy joylar, bolalarning umumiy rivojlanishi va sog'lom hayot tarzini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'tkazilgan so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, bolalar tabiat bilan bevosita aloqada bo'lganida ularning ekologik ong va hissiyotlari rivojlanadi. Bundan tashqari, tadqiqot davomida bolalarning yashil hududlarda o'yin o'ynashlari va faoliyat yuritishlari sog'liq uchun foydali ekanligi aniqlandi. Ularning jismoniy faolligi oshishi bilan birga, tabiatni muhofaza qilishga bo'lgan xohishlari ham ortadi. Ota-onalar va pedagoglarning fikrlari asosida yashil hududlarda o'tkazilgan ekologik tarbiya dasturlari bolalarning



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd February, 2025

atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirishda samarali bo‘lmoqda. Shuningdek, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, shahar ekosistemalarining barqarorligini ta’minlash uchun yashil hududlarni kengaytirish zarur. Bu nafaqat bolalarning ekologik tarbiyasiga, balki umumiy shahar aholisining sifatli hayot kechirishiga ham xizmat qiladi. Yashil maydonlarning ko‘payishi havo sifatini yaxshilashga, shahar issiqligini kamaytirishga va biologik xilma-xillikni saqlab qolishga yordam beradi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shahar ekologiyasi va yashil hududlarning ahamiyatini tasdiqlaydi hamda bolalarni ekologik tarbiyalashda ushbu hududlardan foydalanishni rag‘batlantiradi. Bu esa kelajak avlodning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirishda muhim omil hisoblanadi.

MUHOKAMA

Shaharlarning yashil hududlarga ega bo‘lishi bolalarning sog‘lig‘i, rivojlanishi va ekologik tarbiyasi uchun muhimdir. Bolalar yashil hududlar bilan yaqin aloqada bo‘lib, tabiatni qadrlash, uni himoya qilish va uni saqlashga bo‘lgan mas’uliyatni o‘rganishlari mumkin. Biroq, shaharlarda yashil hududlarning kamayishi va betonlashuv jarayoni bolalarning ekologik tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bolalar tabiat bilan yaqin aloqada bo‘lish imkoniyatidan mahrum bo‘lib, ekologik muammolarni tushunish va ularga qarshi kurashishga qiziqish hosil qila olmayapti. Shaharlarda yashil hududlarni ko‘paytirish va bolalarning ekologik tarbiyasini yaxshilash uchun bir necha choralarni ko‘rish kerak. Shaharlarni rejalashtirishda yashil hududlarga katta e’tibor berish kerak. Shaharlarda ko‘proq parklar, bog‘lar, o‘rmonlar va yashil maydonlar yaratish kerak. Bolalar uchun ekologik tarbiya berishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali maktabgacha ta’lim muassasalarida va maktablarda ekologik tarbiya berishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, oila va jamoatchilikni ekologik muammolar haqida xabardor qilish va ularni ekologik faoliyatga jalg qilish, bolalarni tabiat bilan yaqin aloqada bo‘lishga undash uchun ekologik turizmni rivojlantirish kerak. Shaharlarda yashil texnologiyalarni qo‘llash, masalan, quyosh energiyasidan foydalanish, suvni tejash texnologiyalarini joriy etish, chiqindilarni



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd February, 2025

qayta ishslash va boshqalar. Ushbu choralarini amalga oshirish orqali biz bolalarini sog‘lom va barqaror kelajakda yashashga tayyorlashga yordam beramiz.

Bugungi kunda shaharlarning tez rivojlanishi, urbanizatsiya va sanoatlashuv natijasida yashil maydonlarning kamayishi, nafaqat tabiiy muvozanatni, balki inson salomatligini ham tahdid ostiga qo‘yadi. Yashil hududlar, masalan, parklardagi daraxtlar va o‘simliklar, havoni tozalabgina qolmay, bolalarda tabiatga bo‘lgan qiziqishni ham oshiradi. Bolalar tabiat bilan bevosita aloqada bo‘lishlari kerak. Yashil hududlarda o‘tkazilgan vaqt, ularning ekologik ongini rivojlantirishda yordam beradi. Tadqiqotlar ko‘rsatganidek, bolalarda tabiatga nisbatan qiziqish va hurmatni shakllantirish uchun muntazam ravishda ochiq havoda faoliyat olib borish zarur. Bu nafaqat ularning jismoniy salomatligi uchun foydali bo‘libgina qolmay, balki ruhiy holatini yaxshilaydi.

Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi — bolalarini ekologik mas’uliyatli fuqarolar sifatida tayyorlashdir. Bu esa nafaqat bilimlarni berishdan iborat emas, balki ularda tabiatga nisbatan empatiya va mehr-muhabbat hissini uyg‘otishni ham talab etadi. Shahar ekologiyasi doirasida olib boriladigan tadbirlar orqali bolalarga o‘z atrof-muhitlariga nisbatan mas’uliyatli munosabatda bo‘lishni o‘rgatishimiz mumkin. Bundan tashqari, shaharlarni yashil maydonlar bilan boyitishning ahamiyati kattadir. Yashil hududlar shahar hayotining sifatini oshirishda muhim omildir: ular havoni tozalaydi, shovqin darajasini pasaytiradi va ijtimoiy integratsiyani ta’minlaydi. Bolalar uchun qulay muhit yaratish orqali ularni sog‘lom turmush tarziga jalb qilish mumkin. O‘z navbatida, mahalliy jamoalar va davlat organlari yashil hududlarni saqlab qolishga e’tibor qaratishi zarur. Ularni yaxshilash va kengaytirish orqali biz nafaqat bugungi avlodni balki kelajak avlodlarni ham tabiatning go‘zalligi bilan tanishtirishimiz mumkin. Shunday qilib, shahar ekologiyasi va yashil hududlarning ahamiyati bolalarning ekologik tarbiyasida alohida o‘rin tutadi. Ularni himoya qilish va rivojlantirish orqali biz barqaror kelajak uchun poydevor yaratamiz.

XULOSA

Shahar ekologiyasi va yashil hududlarning ahamiyati haqida gap ketganda, bolalarini tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish lozim. Bolalarini tabiat bilan yaqin aloqada bo‘lishga, uni qadrlashga va uni himoya qilishga undash kerak. Yashil hududlar bolalar uchun sog‘lom rivojlanish, ekologik tarbiya va ijtimoiy rivojlanish uchun



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd February, 2025

muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, shaharlarni yashil va bolalar uchun qulayroq qilish uchun harakat qilishimiz kerak.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Azizzxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalari pedagogik mahorat - T.: TDPU, 2003.
2. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: MonografiY. — M.: MAKS Press, 2016.
3. Ergashev A.E. Hozirgi zamonning ekologik muammolari va tabiat muhofazasi. Toshkent 2012.
4. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalahtirish: O'quv uslubiy qo'llanma/ Ta'limda innovatsion texnologiya seriyasi. – T.: 2010.
5. Ishmuhamedov R., M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019.
6. Nazarov M. Ekologiya fanidan xorijiy mamlakatlarda olib borilayotgan yangi texnologik va pedagogik texnologiyalar. (Malaka oshiruvchilar uchun) Farg'ona davlat universiteti qoshidagi kadrlar malakasini oshirish bo'limi) Farg'ona, 2018.
7. Sattorov Z.M. Qurilish ekologiyasi. – T.: Sano-standart, 2017.
8. Shodimetov. Y. Ijtimoiy ekologiya. (darslik). Toshkent, 2003.